
№6 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№6 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ

Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Равшанов Лочинбек Уринович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD

Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoyirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH

Mirzayeva Faroxat Odiljonovna
Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasi professori, p.f.d., (DSc)

Annotatsiya: Maqolada ta’lim jarayonidagi pedagogik nizolarni deontologik tamoyillar asosida boshqarishning nazariy-huquqiy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish hamda tizimli yondashuv asosida nizolarning asosiy omillari va etik xavflari tasniflanadi. Betaraflik, xolislik, adolat, qadr-qimmatni hurmat qilish va maxfiylik tamoyillarining o‘zaro aloqasi ochib beriladi. Pedagog uchun nizoni boshqarishning sakkiz bosqichli konseptual algoritmi taklif etilib, uni qo‘llash shartlari va cheklovlari ko‘rsatiladi. Tadqiqot xulosalari pedagoglarning konfliktologik va deontologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik deontologiya, pedagogik nizo, kasbiy etika, xolislik, adolat, pedagogik mas’uliyat, nizolarni boshqarish, refleksiya.

УПРАВЛЕНИЕ КОНФЛИКТАМИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ НА ОСНОВЕ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-правовые и практические аспекты управления педагогическими конфликтами на основе деонтологических принципов. Посредством анализа нормативных документов, сопоставления научных подходов и системного анализа выделены основные факторы конфликтов и соответствующие этические риски. Раскрыта взаимосвязь беспристрастности, объективности, справедливости, уважения человеческого достоинства и конфиденциальности. Предложен восьмиэтапный концептуальный алгоритм действий педагога, обозначены условия и ограничения его применения. Выводы ориентированы на развитие конфликтологической и деонтологической компетентности педагогов.

Ключевые слова: педагогическая деонтология, педагогический конфликт, профессиональная этика, объективность, справедливость, профессиональная ответственность, управление конфликтами, рефлексия.

CONFLICT MANAGEMENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON DEONTOLOGICAL PRINCIPLES

Abstract: This article examines the theoretical, legal, and practical dimensions of managing educational conflicts through deontological principles. Drawing on analysis of legal documents, a comparative review of scholarly approaches, and systems thinking, it identifies major sources of conflict and associated ethical risks. The paper distinguishes impartiality, objectivity, fairness, respect for human dignity, and confidentiality. It proposes a conceptual eight-stage framework for educators and outlines the conditions and limitations of its application. The findings aim to support the development of educators' conflict-management and deontological competencies.

Keywords: pedagogical deontology, educational conflict, professional ethics, objectivity, fairness, professional responsibility, conflict management, reflection.

KIRISH

Ta'lim jarayonining sifati nafaqat o'quv natijalari, balki pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy va axloqiy asoslarda tashkil etilishiga ham bog'liq. Baholashga oid e'tirozlar, intizomiy tortishuvlar, kommunikativ tushunmovchiliklar hamda raqamli muloqotdagi kelishmovchiliklar pedagogdan faqat murosaga keltirish ko'nikmasini emas, balki inson qadr-qimmatini asraydigan, dalillarga tayanuvchi va me'yoriy jihatdan asoslangan qaror qabul qilishni talab qiladi. Shu sababli nizolarni deontologik tamoyillar asosida boshqarish pedagogika, kasbiy etika va ta'lim huquqi kesishgan dolzarb muammo hisoblanadi.

Mazkur masalaning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ta'lim olish huquqi, inson sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, shuningdek, o'qituvchi mehnatining ijtimoiy ahamiyatini e'tirof etish bilan bog'liq [1]. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun [2] ta'lim munosabatlarining umumiy huquqiy asoslarini, «Pedagogning maqomi to'g'risida»gi Qonun [3] esa pedagogning kasbiy huquqlari, majburiyatlari va uning faoliyatiga oid kafolatlarni belgilaydi. Ushbu normalar nizoli vaziyatlarda vakolatdan mas'uliyat bilan foydalanish, ta'lim oluvchining manfaatlarini hisobga olish va pedagogik munosabatlarning qonuniyligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar ishtirokidagi nizolarni ko'rib chiqishda «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun [4] muhim me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni [5] ta'lim sifati va inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha strategik ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi. Shuningdek,

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi haqidagi PF-60-son Farmon [6] ta’lim tizimini takomillashtirish islohotlarining avvalgi bosqichini ifodalaydi. Mazkur hujjatlar pedagogik nizolarni boshqarish, kasbiy mas’uliyat, xavfsiz ta’lim muhiti va sifatli ta’limni ta’minlashning huquqiy-siyosiy kontekstini yaratadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Ta’lim muassasasida yuzaga keladigan pedagogik nizoni faqat tashkiliy yoki psixologik hodisa sifatida izohlash yetarli emas. U kasbiy burch, huquq, adolat va inson qadr-qimmatini muhofaza qilish bilan bog‘liq deontologik muammodir. Pedagog nizo sabablarini aniqlash, etik xavflarni baholash, manfaatdor tomonlarning huquq va ehtiyojlarini ajratish, xolis qaror qabul qilish hamda nizodan keyingi munosabatlarni tiklash bo‘yicha kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi lozim.

Ta’lim jarayonidagi nizo tabiatan mutlaqo salbiy hodisa emas. U ehtiyojlar, qadriyatlar, rollar, me’yorlar, baholash mezonlari yoki kommunikativ kutishlar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ko‘rsatadigan ijtimoiy signal bo‘lishi mumkin. Nizoning pedagogik xavfi uning mavjudligida emas, balki kuchlar teng bo‘lmagan “ta’lim beruvchi - ta’lim oluvchi” munosabatida noto‘g‘ri boshqarilganda, kamsitish, omma oldida tahqirlash, asossiz jazo, bahodan bosim vositasi sifatida foydalanish, ishonchning yo‘qolishi va ta’lim motivatsiyasining pasayishiga olib kelishidadir.

Deontologik yondashuv pedagogning “nima qilish foydali?” degan savoli bilan bir qatorda “kasbiy burch nuqtayi nazaridan nima qilishim shart?”, “qaysi harakat o‘quvchining sha’ni va huquqlarini saqlaydi?”, “qarorim barcha tomonlarga bir xil mezon asosida tatbiq etilyaptimi?” kabi savollarni qo‘yishini talab qiladi. Shu sababli nizoni boshqarish pedagogning kommunikativ mahorati bilan cheklanmaydi. U axloqiy mulohaza, huquqiy savodxonlik, emotsional o‘zini boshqarish, dalilga tayangan qaror va refleksiyani birlashtiruvchi kompleks kasbiy kompetensiyadir.

Pedagogik konflikt - ta’lim jarayoni subyektlarining maqsadlari, manfaatlari, qadriyatlari, ehtiyojlari, rollari yoki vaziyatni talqin qilishlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikning ochiq yoki yashirin shaklda namoyon bo‘lishidir. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizoda institutsional vakolatlar teng emas, pedagog baholaydi, tartibni boshqaradi, resurs va axborotga kirishni nazorat qilishi mumkin. Aynan shu assimetriya pedagogga yuqoriroq deontologik mas’uliyat yuklaydi.

Ilmiy adabiyotlarda konstruktiv yondashuv nizo natijasini uning mavjudligidan ko‘ra, tomonlarning munosabati, muloqot usuli va boshqaruv jarayoni belgilashini ta’kidlaydi [9]. Manfaatlarga yo‘naltirilgan muzokara esa shaxsni muammodan ajratish, pozitsiyalardan ko‘ra ehtiyojlarni anglash va xolis mezonlardan foydalanishga tayanadi[8]. Bu yondashuvlar pedagogik

deontologiyaning zarar yetkazmaslik hamda qadr-qimmatni saqlash tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

Ta’lim jarayonidagi nizolarning kelib chiqishi ko‘p omilli xususiyatga ega. 1-jadvalda manbaviy matn asosida ularning ko‘rinishlari va deontologik xavflari tizimlashtirildi.

1-jadval. Ta’lim jarayonidagi nizolarning asosiy omillari

Omil	Kuzatiladigan natijalar	Deontologik xavf
Kommunikativ sabablar	Buyruqboz ohang, noaniq ko‘rsatma, tinglamaslik, kinoya, yorliq yopishtirish, o‘quvchining fikrini mensimaslik;	Hurmat va qadr-qimmatning buzilishi
Baholash bilan bog‘liq sabablar	Mezonlarning oldindan tushuntirilmasligi, bir xil ishga turlicha talab qo‘yish, subyektiv taassurotning bahoga ta’siri, apellyatsiya imkoniyatining yo‘qligi;	Xolislik va adolatga shubha
Rol va intizomga doir sabablar	Pedagog va o‘quvchining “maqbul xulq” haqidagi tasavvuri mos kelmasligi, qoida va oqibatlarning izchil qo‘llanmasligi;	Vakolatni suiiste’mol qilish
Individual-psixologik sabablar	Stress, emotsional zo‘riqish, temperament farqlari, o‘zini nazorat qilish qiyinlashuvi. Bular sababni tushuntirishi mumkin, ammo etik buzilishni oqlamaydi;	Impulsiv qaror va zarar
Ijtimoiy va guruhiy sabablar	Tengdoshlar bosimi, guruhdagi maqom, stereotiplar, kamsituvchi munosabat, ijtimoiy tengsizlikning sinfdagi aks etishi;	Kamsitish yoki chetlatish
Raqamli muhit bilan bog‘liq sabablar	Messenjer va ijtimoiy tarmoqlarda chegaralarning buzilishi, yozishma ohangining noto‘g‘ri talqini, shaxsiy ma’lumotni tarqatish, kiberbulling;	Maxfiylik va kasbiy chegara buzilishi
Tashkiliy sabablar	Ortiqcha yuklama, noaniq ichki tartib, shikoyat mexanizmining sustligi, vakolatlar chegarasining belgilanmaganligi.	Mas’uliyatning noaniqligi

Nizoning rivojlanishi va profilaktik yondashuv

Nizo odatda bir martalik voqea emas, balki bosqichma-bosqich kuchayadigan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tahliliy ketma-ketligi quyidagicha:

1) yashirin ziddiyat yoki qondirilmagan ehtiyoj;

2) konfliktogen voqea;
3) voqeani salbiy talqin qilish;
4) emotsional zo‘riqish;
5) javob harakati va eskalatsiya;
6) ochiq qarama-qarshilik;
7) oqibat va munosabatlarning qayta qurilishi.

Bu bosqichlar barcha holatlarda qat’iy bir xil kechmaydi. Ular pedagog uchun vaziyatni erta aniqlashga xizmat qiluvchi tahliliy sxemadir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagog uchun eng muhim nuqta - eskalatsiyadan oldingi bosqichlarni payqash. Masalan, o‘quvchining takroriy e’tirozi “intizomsizlik” deb avtomatik talqin qilinmasdan, topshiriqning tushunarsizligi, baholashga ishonchsizlik yoki guruhdagi bosim kabi omillar tekshirilishi lozim.

Konfliktning predmeti bilan shaxsni ajratish deontologik jihatdan muhim: “siz mas’uliyatsizsiz” degan shaxsiy yorliq o‘rniga “topshiriq belgilangan muddatda topshirilmadi; sabab va yechimni aniqlaymiz” kabi xulqqa yo‘naltirilgan ifoda qo‘llanadi. Bu usul muammoni inkor qilmaydi, lekin shaxs qadr-qimmatini saqlaydi.

Masalan, talabaning qo‘yilgan bahoga e’tirozi auditoriya oldida shaxsiy tortishuvga aylantirilmasligi lozim. Pedagog baholash mezonlarini izohlaydi, ishni qayta tekshiradi, ichki tartibda ko‘zda tutilgan bo‘lsa, mustaqil ko‘rib chiqish yoki apellyatsiya mexanizmini taklif qiladi. Qaror bir xil mezonlarga asoslanishi, e’tiroz bildirgan shaxsga nisbatan salbiy munosabat bilan bog‘lanmasligi kerak.

Ta’lim jarayonidagi betaraflik, xolislik va adolat mazmunan yaqin bo‘lsa-da, aynan bir tushuncha emas. Betaraflik pedagogning shaxsiy simpatiya-antipatiya, guruh bosimi yoki manfaatlar ta’sirida bir tomonni asossiz qo‘llamasligini anglatadi. Xolislik - qarorni tekshiriladigan dalil, aniq mezon va protsedura asosida chiqarishdir. Adolat esa bir xil holatlarga izchil mezon qo‘llash bilan birga, real teng imkoniyat yaratish uchun asosli individual ehtiyojlarni ham hisobga olishni talab etadi.

Formal tenglik “hamma uchun aynan bir xil” qoidani anglatishi mumkin. Pedagogik adolat esa ayrim hollarda oqilona moslashtirishni talab qiladi. Masalan, barcha talabaga bir xil baholash mezoni qo‘llanadi, biroq qonuniy va pedagogik asos mavjud bo‘lsa, maxsus ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchiga topshiriqni bajarish shakli yoki vaqti bo‘yicha moslashtirish berilishi mumkin. Bunda natijani baholashning akademik mezoni buzilmaydi, balki unga erishish imkoniyati adolatli tashkil etiladi.

Pedagogik betaraflik “axloqiy befarqlik” degani emas. Zo‘ravonlik, tahqirlash, kamsitish yoki xavfsizlikka tahdid mavjud bo‘lsa, pedagog “ikki tomon ham bir xil darajada haq” degan sun’iy muvozanatni yaratmasligi kerak. U faktlarni

tekshiradi, zarar ko‘rayotgan shaxsning xavfsizligini ta’minlaydi va tegishli institutsional tartibni ishga tushiradi. Demak, betaraflik zarar va huquqbuzarlikka nisbatan passivlik emas, balki shaxsiy tarafkashlikdan xoli, me’yoriy asoslangan faoliyatdir.

Protsessual adolat ham muhim nizoda faqat yakuniy yechimning mazmuni emas, balki tomonlar fikrini eshitish, sabablarni tushuntirish, qarorni hujjatlashtirish va shikoyat imkoniyatining mavjudligi ham ishonchni shakllantiradi. Shuningdek, maxfiylik mutlaq tusda talqin qilinmaydi: xavfsizlikka tahdid yoki qonunda belgilangan xabar berish majburiyati mavjud bo‘lsa, tegishli ma’lumot vakolatli subyektlarga faqat zarur hajmda yetkaziladi.

Pedagogning axloqiy pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyati

Pedagogning axloqiy pozitsiyasi uning shaxsiy kayfiyati emas, balki kasbiy qadriyatlarni konkret vaziyatda izchil himoya qilish qobiliyatidir. Nizoda pedagog bir vaqtning o‘zida ta’lim maqsadini, o‘quvchining qadr-qimmatini, guruh xavfsizligini, akademik halollikni va muassasa qoidalarini muvozanatlashtiradi. Bunda “mening obro‘yimni saqlash” emas, pedagogik va etik jihatdan asoslangan natijaga erishish ustuvor bo‘ladi.

Pedagogning deontologik pozitsiyasi quyidagi mezonlarda namoyon bo‘ladi:

- qadr-qimmatni saqlash tanbeh berilganda shaxsni tahqirlamaslik;
- zarar yetkazmaslik qarorning psixologik, ijtimoiy va akademik oqibatini baholash;
- mas’uliyat xatoni tan olish va tuzatish; kasbiy chegaralar, sovg‘a, manfaat va shaxsiy yaqinlikning baholashga ta’sirini cheklash;
- maxfiylik - shaxsiy axborotni vakolat doirasida muhofaza qilish;
- refleksiya - stereotip va hissiyotlarning qarorga ta’sirini tekshirish.

Pedagogning ijtimoiy mas’uliyati individual nizoni hal qilishdan kengroqdir. U sinf yoki guruhda hurmatga asoslangan kommunikatsiya normasini yaratadi, diskriminatsiya va bullyingning normalashuviga yo‘l qo‘ymaydi, o‘quvchilarga kelishmovchilikni zo‘ravonliksiz ifodalash usullarini o‘rgatadi. Shu ma’noda pedagog konfliktni boshqarish orqali fuqarolik muloqoti, huquqiy madaniyat, empatiya va javobgarlikning kundalik modelini namoyish etadi.

Milliy pedagogik adabiyotlarda o‘qituvchining mahorati, nutq madaniyati va ta’limiy muloqotiga berilgan e’tibor [7] deontologik boshqaruvning kommunikativ asoslarini mustahkamlaydi. Biroq nutqiy xushmuomalalikning o‘zi yetarli emas. Pedagogning qarori aniq huquqiy me’yor, baholash mezoni va institutsional tartib bilan ham muvofiq bo‘lishi kerak.

Deontologik boshqaruvning sakkiz bosqichli konseptual algoritmi

Quyidagi amaliy ketma-ketlik manbaviy maqoladagi modelning huquqiy va protsessual aniqlashtirilgan tahriridir. U vaziyat xususiyatiga moslashtirib qo‘llanishi kerak.

1. Emotsional o‘zini boshqarish. Pedagog ovoz ohangi va impulsiv reaksiyasini nazorat qiladi; xavf bo‘lmagan holatda shoshilinch ayblovdan tiyiladi.

2. Xavfsizlikni ta’minlash. Jismoniy yoki psixologik zarar xavfi mavjud bo‘lsa, avvalo himoya choralari ko‘riladi va zaruratda mas’ul xodimlar jalb qilinadi.

3. Faktlarni aniqlash. Tekshirilgan voqea, taxmin, baho va shaxsiy taassurot alohida qayd etiladi; raqamli dalillar bilan ishlashda maxfiylik saqlanadi.

4. Tomonlarni tinglash. Har bir tomon o‘z qarashi va ehtiyojlarini bayon etadi; kuchlar teng emasligi, yosh va individual ehtiyojlar hisobga olinadi.

5. Huquqiy va etik mezonlarni tekshirish. Qadr-qimmat, xolislik, adolat, manfaatlar to‘qnashuvi, maxfiylik, mutanosiblik va amaldagi ichki tartib baholanadi.

6. Yechimlarni ishlab chiqish. Ta’limiy, murosaviy yoki zaruratda rasmiy tashkiliy choralar ko‘rib chiqiladi; jazo yagona vositaga aylantirilmaydi.

7. Qarorni rasmiylashtirish. Amalga oshiriladigan harakatlar, mas’ullar, muddat, qayta ko‘rib chiqish va murojaat qilish imkoniyatlari aniq belgilanadi.

8. Refleksiya va kuzatuv. Qarorning ijrosi, takrorlanish xavfi va munosabatlardagi o‘zgarishlar tahlil qilinib, profilaktik choralar takomillashtiriladi.

Konseptual pedagogik vaziyat: talaba topshiriq uchun qo‘yilgan bahoni adolatsiz deb hisoblab, o‘qituvchiga guruh chatida keskin e’tiroz bildiradi. Agar pedagog bunga ommaviy tanbeh bilan javob bersa, nizo kuchayishi, talabaning obro‘siga putur yetishi va guruhda ishonchsizlik ortishi mumkin. Deontologik yechim esa avvalo suhbatni shaxsiy va xavfsiz muloqotga o‘tkazish, yozishmalardagi faktlarni tekshirish, avval e’lon qilingan baholash mezonlarini taqdim etish, zarur bo‘lsa qayta ko‘rib chiqish tartibini ishga tushirish va keyingi kommunikatsiya qoidalarini kelishib olishdan iborat. Bu misol kuzatuv natijasi emas, algoritmning qo‘llanishini tushuntiruvchi modeldir.

Amaliy baholash uchun quyidagi indikatorlardan foydalanish mumkin:

a) nizo to‘g‘risidagi murojaatning belgilangan muddatda ko‘rilishi;

b) har ikki tomon fikrini tinglashning qayd etilishi;

c) qarorning huquqiy va baholash mezonlari bilan asoslanishi;

d) takroriy nizolar ulushining dinamikasi;

e) ishtirokchilarning tartib adolatliligi va muloqot hurmatiga doir anonim baholari.

XULOSA

Algoritmni qo‘llashda quyidagilarga rioya etish zarur: zo‘ravonlik, tahqirlash, tizimli kamsitish yoki bolaning xavfsizligiga real tahdid bo‘lgan hollarda oddiy mediatsiya huquqiy himoya va majburiy institutsional choralar o‘rnini bosa olmaydi. Bunday vaziyatlarda tegishli vakolatli organlar va muassasaning belgilangan tartiblari ustuvor hisoblanadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, pedagogik nizolarni samarali boshqarishning asosiy mezoni kelishmovchilikni imkon qadar tez tugatish emas, balki uni adolatli, shaxsga zarar yetkazmaydigan hamda ta’limiy munosabatni tiklashga xizmat qiladigan tarzda hal etishdir. Betaraflik shaxsiy tarafkashlikni cheklaydi, xolislik dalil va protseduraga tayanishni ta’minlaydi, adolat esa umumiy mezonlarni individual ehtiyojlarga asosli moslashtirish bilan uyg‘unlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir, 2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2024-yil 1-fevral, O‘RQ-901-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni. 2008-yil 7-yanvar, O‘RQ-139-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni.
7. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
8. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.
9. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

SPONTANEOUS ONLINE SHOPPING AS A STRESS-COPING MECHANISM Alena Garber., Railya Kereyeva	6
HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI Ravshanov Lochinbek Urinovich	14
ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI G‘ayibova Nargiza Anorbayevna	20
QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI Sadikova Umida Botirovna	27
O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	35
OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi	43
O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	50
HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li	63
TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	70
PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna	78

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH **Yuldasheva Umida Maxmudovna**	**85**
KURSANT VA TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA EKSTREMAL SHAROITLARDA HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich**	**92**
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI **Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna**	**101**
KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI **Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi**	**110**
“TARBIYA” DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS’ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH **Abdullayeva Surayyo Babojonovna**	**119**
O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI **Sulaymonqulov Islomjon**	**131**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI **Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi**	**136**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR TAHLILIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 145
Mullayeva Madina Qudratovna